

Inspeksiya Hay'at yig'ilishining
2025-yil 15-iyuldagi
HB-08-25-sonli bayoniga
2-ilova

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi
markaziy apparatining 2025-yil II yarim yillikda bajariladigan vazifalar
ISH REJASI**

T/r	Chora-tadbirlarning nomi	Amalga oshirish mexanizimi	Ijro muddati	Erishiladigan natija	Ijro uchun mas'ullar
I. "O'ZBEKISTON - 2030" STRATEGIYASI, VAZIRLAR MAHKAMASINING YAQIN MUDDATGA VA UZOQ ISTIQBOLGA MO'LJALLANGAN HARAkatLAR DASTURIDAN KELIB CHIqADIGAN USTUVOR VAZIFALAR					
1.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida PF-16-sonli Farmoni ijrosini ta'minlashga qaratilgan "O'zagroinspeksiya"da belgilangan ustuvor vazifalar bo'yicha chora-tadbirlar ijrosini ta'minlash.	1. Inspeksiya tomonidan Chora-tadbirlar rejasining tegishli bandlari ijrosi ta'minlanadi. 2. Ijrosi yakuni bo'yicha tegishli tahliliy ma'lumotlar tayyorlanadi. 3. Amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi axborotni "Taraqqiyot strategiyasi" markazi, "Yuksalish" harakatiga kiritib boriladi.	iyul, dekabr (05.07, 05.01)	Yangi O'zbekiston strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalarni ro'yobga chiqarishga, shuningdek, qishloq xo'jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini oshirishga erishiladi.	V.Hasanov, I.Pirnazarov, M.Mirzayev (i) , tarkibiy tarmoq va hududiy boshqarmalar boshliqlari
2.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-sonli qarorida belgilangan ustuvor vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash.	1. Har hafta juma kunlari Inspeksiya boshlig'ining o'rinbosariga, har hafta dushanba kuni Inspeksiya boshlig'i huzurida ijro intizomiga rioya qilinishi bo'yicha o'tkaziladigan muhokamaga tahliliy ma'lumotlar kiritib boriladi. 2. Har hafta dushanba kuni ijro intizomiga rioya qilinishi bo'yicha	yanvar-iun (har oyning 5-sanasisiga)	Inspeksiyaga kelib tushgan har bir hujjatni ro'yxatga olinishi va uning ijro muddatini belgilash qat'iy tartib asosida amalga oshirilishi, hujjatlarning ijro etilishi ustidan nazoratni tashkil qilinishi hamda har bir hujjatning o'z vaqtida ijro qilinishi ta'minlanadi.	V.Hasanov, I.Pirnazarov, R.Aminov (i) , O.Yarmatov, tarkibiy tarmoq va hududiy boshqarmalar boshliqlari

T/r	Chora-tadbirlarning nomi	Amalga oshirish mexanizimi	Ijro muddati	Erishiladigan natija	Ijro uchun mas'ullar
		muhokama yakuni bo'yicha yig'ilish bayonlari rasmiylashtiriladi.			
3.	Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligi bilan texnik hujjatlar ishlab chiqib o'zaro axborot almashinuvini yo'lga qo'yish.	1. Texnologik yo'riqnoma ishlab chiqish. 2. Axborot tizimlarining o'zaro axborot almashinuvini yo'lga qo'yish.	avgust	Qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish raqamlashtirilib holati muntazam kuzatib borib tizimda hamda aniqlangan kamchiliklar zudlik bilan bartaraf etilishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.	N.Kadirov (i), Bo'lim xodimlari
4.	Inspeksiyada an'anaviy xizmat ko'rsatilayotgan Jismoniy shaxslarning 100 ot kuchigacha quvvat ega bo'lgan texnikliklarni texnik ko'rikdan o'tkazish uchun ariza berish xizmatini my.gov.uz orqali amalga oshirishni yo'lga qo'yish.	1. Tizimni qog'oz shakli elektron shaklga o'tkazuvchi dasturiy qismini ishlab chiqish. 2. "My.gov.uz" tizimiga integratsiya uchun texnologik yo'riqnoma ishlab chiqish. 3. Integratsiya ishlarini yakuniga yetkazish.	oktabr	Xizmat raqamlashtirilib jismoniy shaxslar uchun qulaylik yaratilib, qog'oz shakli elektron shaklga o'tkaziladi.	N.Kadirov (i), Bo'lim xodimlari
II. XODIMLARINING MADANIY-MARIFIY FAOLLIGINI OSHIRISH HAMDA DAVLAT TILIGA OID QONUN HUJJATLARIGA RIOYA QILINISHINI TA'MINLASH MASALALARI					
5.	Inspeksiya tizimida taniqli olimlar, ijodkor ziyolilar va san'atkorlar ishtirokida "1-sentabr – Mustaqillik kuni", "8-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni" sanalariga bag'ishlab ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish.	1. Umumxalq bayramlari munosabati bilan bayram dasturlari rejasini tayyorlash; 2. Bayram tadbirlarini o'tkazish. 3. Amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi axborot Vazirlar Mahkamasiga kiritib boriladi.	sentabr dekabr	Xodimlarda Vatanga muhabbat tuygusini yanada oshirish, ma'naviy muhitni shakllantirishga erishiladi.	F.Mamasoliyev (i), Tarkibiy tarmoq rahbarlari
6.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-iyuldagi PQ-222-son qarori ijrosi yuzasidan	1. Xodimlarining madaniy hordiq chiqarishlari uchun konsert, sirk va teatrlarga, askiya, qiziqchilik va so'z	iyul-dekabr	Xodimlarining madaniy hordiq chiqarishlari orqali ommaviy bayramlar va madaniy	F.Mamasoliyev (i), Tarkibiy tarmoq rahbarlari, Qishloq

T/r	Chora-tadbirlarning nomi	Amalga oshirish mexanizimi	Ijro muddati	Erishiladigan natija	Ijro uchun mas'ullar
	Inspeksiyada har chorakda kamida bir marotaba budjetdan tashqari mablag'lari hamda kasaba uyushmalari mablag'lari hisobidan o'z xodimlarining madaniy-estetik hordiq chiqarishlari uchun ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlari, teatr va muzaylarga tashriflarni tashkil etish.	san'ati tomoshalariga kirishni tashkil qilinadi. 2. Amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi axborot Vazirlar Mahkamasiga kiritib boriladi.		tadbirlarda ularning faol ishtiroki ta'minlanadi.	xo'jaligi mahsulotlari sifatini baholash markazi" DM hududiy boshqarmalar
7.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi "2025-2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko'paytirish va turistik xizmatlar ko'lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-sonli Farmoni ijrosi yuzasidan xodimlarining sayohatlarini tashkil qilish.	Inspeksiyaning 2026-yil yil uchun xodimlarining sayohat reja-jadvali ishlab chiqiladi va belgilangan tartibda tasdiqlanadi. Bu borada amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritiladi.	noyabr-dekabr	"O'zagroinspeksiya"da faoliyat yuritayotgan xodimlarning 2026-yil uchun sayohat reja-jadvali tasdiqlanishiga erishiladi va kelgusi yilda ushbu reja-jadval asosida xodimlar uchun sayohatlar tashkil etilishiga zamin yaratiladi.	F.Mamasoliyev (i), Qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatini baholash markazi" DM hududiy boshqarmalar
III. YURIDIK TA'MINLASH VA FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA CHORA-TADBIRLAR					
8.	Inspeksiya soha faoliyatiga tegishli bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni targ'ib qilish yuzasidan Adliya vazirligining elektron portaliga (http://htb.huquqiportal.uz) kiritib borilishi ahvolini o'rganish. Markaziy apparat tomonidan Samarqand, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida o'rganish.	Samarqand, Jizzax va Sirdaryo viloyat boshqarmalari tomonidan Adliya vazirligining elektron portaliga (http://htb.hnquqiportal.uz) sohaga oid targ'ibot tadbirlari kiritilishi ahvolini o'rganish.	noyabr	Inspeksiya soha faoliyatiga tegishli bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni targ'ib qilinishi natijasida xodimlar va aholining huquqiy savodxonligi oshirilishiga erishiladi va o'rganish natijasi bo'yicha rahbariyatga axborot kiritiladi.	Sh.Bo'ronov (i), S. Ismoilova Inspeksiyaning Samarqand, Jizzax va Sirdaryo viloyatlari boshqarma boshliqlari

T/r	Chora-tadbirlarning nomi	Amalga oshirish mexanizimi	Ijro muddati	Erishiladigan natija	Ijro uchun mas'ullar
IV. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNLARI, PREZIDENTNING FARMONLARI, QARORLARI, FARMOYISHLARI VA HUKUMAT QARORLARI IJROSINI MAQSADLI O'RGANISH					
9.	Ish yuritish va ijro intizomiga oid qonunchilik hujjatlari (PF-6166, PQ-5132, Vazirlar Mahkamasining 12 va 140-sonli qarorlari) ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlarni Inspeksiyaning quyi tizimlarida va tarkibiy bo'linmalarida o'rganish. Markaziy apparat tomonidan mazkur yo'nalishda hududiy boshqarmalarda "edo.ijro.uz" tizimi orqali amalga oshirilgan ishlarni Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida joyiga chiqqan holda yoki masofaviy maqsadli o'rganish.	1. Amaldagi qonunchilik hujjatlari va Inspeksiya ichki hujjatlari asosida o'rganish dasturini shakllantirish. 2. Bazadagi hisobotlar asosida tahliliy ma'lumotlarni yig'ish, ma'lumotlar tayyorlash. 3. O'rganish yakuni bo'yicha rahbariyatga yig'ma axborot kiritiladi va tegishli chora-tadbirlar belgilanadi, aniqlangan holatlar yuzasidan zarur hollarda ko'rsatmalar beriladi.	iyul-dekabr	Inspeksiyaga kelib tushgan har bir hujjatni ro'yxatga olinishi va uning ijro muddatini belgilash qat'iy tartib asosida amalga oshirilishi, hujjatlarning ijro etilishi ustidan nazoratni tashkil qilinishi hamda har bir hujjatning o'z vaqtida ijro qilinishi ta'minlanadi.	V.Hasanov, I.Pirnazarov (i), R.Aminov O.Yarmatov Sirdaryo va Jizzax viloyat hududiy boshqarmalari boshliqlari
10.	O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni va Inspeksiya boshlig'ining tegishli sohaviy hujjatlari ijrosini Inspeksiyaning quyi tizimlarida va tarkibiy bo'linmalarida o'rganish. Markaziy apparat tomonidan mazkur yo'nalishda Sirdaryo va Jizzax viloyat hududiy boshqarmasida joyiga chiqqan holda yoki masofaviy maqsadli o'rganish.	1. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish sohasida savolnoma asosida o'rganish o'tkazish. 2. O'rganish yakuni bo'yicha rahbariyatga yig'ma axborot kiritiladi va tegishli chora-tadbirlar belgilanadi, aniqlangan holatlar yuzasidan zarur hollarda ko'rsatma chiqariladi.	iyul-dekabr	1. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini belgilangan muddatlarda ijrosini ta'minlanishiga hamda murojaatlarda ko'tarilgan masalalar bilan ishlash borasidagi faoliyatini tahlil qilish yo'lga qo'yiladi. 2. Har bir murojaat zudlik bilan o'rganilishi va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko'riladi.	Q.Abdujapparov (i), Sirdaryo va Jizzax viloyat hududiy boshqarmalari boshliqlari

T/r	Chora-tadbirlarning nomi	Amalga oshirish mexanizimi	Ijro muddati	Erishiladigan natija	Ijro uchun mas'ullar
11.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-dekabr-dagi PQ-431-son qarorining 5-band ijrosi ta'minlash maqsadida Import qilingan qishloq xo'jaligi texnikalarini sotuvchi dillerlarning davlat reestrini yuritish.	1. Normativ-huquqiy hujjat qabul qilinishini ta'minlash. 2. Import qilingan qishloq xo'jaligi texnikalarini sotuvchi dillerlarning davlat reestrini shakllantirish va yuritilishini ta'minlash.	iyul	Import qilingan qishloq xo'jaligi texnikalarini sotuvchi dillerlarning davlat reestri yuritiladi. Buning natijasida respublikada import qilingan qishloq xo'jaligi texnikalarini realizatsiya qilish bilan shug'ullanuvchi rasmiy dillerlar ro'yxati to'g'risidagi ochiq ma'lumotlar bazasi shakllantiriladi.	A.Mirzaaxmedov (i) Sh.Bo'ronov
12.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-dekabr-dagi PQ-431-son qarorining 10-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida kombaynlarni xarid qilish, xaridni moliyalashtirish, subsidiyalardan foydalanish, qishloq xo'jaligi texnikalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, servis xizmatlaridan foydalanish hamda ehtiyot qismlarni xarid qilish imkoniyatini beruvchi raqamlashtirilgan yagona axborot portalining to'liq ishga tushirish.	1. Texnikalar hisobi axborot tizimini O'zavtosanoat axborot tizimi bilan integratsiya qilish. 2. Integratsiya orqali Inspeksiya tomonidan davlat ro'yxatiga olingan texnikalar to'g'risidagi ma'lumotlarni elektron almashish imkoniyatini yaratish	avgust	Davlat ro'yxatiga olingan texnikalar to'g'risidagi ma'lumotlarni elektron almashish imkoniyatini yaratilishi natijasida texnikalarning aniq hisobi yuritilishi ta'minlanadi.	V.Hasanov, A.Mirzaaxmedov (i), N.Kadirov
13.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-67-sonli qarorining ijrosini ta'minlash maqsadida 2026-yil hosili uchun qo'shimcha yetkazib berish talab etiladigan kombaynlar miqdori	1. 2025-yil paxta yig'im-terim mavsumida qatnashadigan paxta terish mashinalarini mavsumga shay holatga keltirish. 2. 2026-yil hosili uchun qo'shimcha yetkazib berish talab etiladigan	noyabr	Paxta terish mashinalarini o'z vaqtida davlat ro'yxatidan o'tkazilishi ta'minlanadi.	A.Mirzaaxmedov (i)

T/r	Chora-tadbirlarning nomi	Amalga oshirish mexanizimi	Ijro muddati	Erishiladigan natija	Ijro uchun mas'ullar
	bo'yicha asosli hisob-kitoblarni ishlab chiqish uchun davlat ro'yxatiga olingan paxta terish mashinalarini aniq-hisob kitobini Qishloq xo'jaligi vazirligiga kiritish.	kombaynlar miqdori bo'yicha asosli hisob-kitoblarni ishlab chiqish uchun davlat ro'yxatiga olingan paxta terish mashinalari aniq-hisob kitobini Qishloq xo'jaligi vazirligiga kiritish.			
V. INSPEKSIYA NIZOMIDA BELGILANGAN VAZIFA VA FUNKSIYALAR IJROSINI O'RGANISH, QUYI INSPEKSIYALAR ISH FAOLIYATINI TAHLIL QILISH					
14.	Qishloq xo'jaligi sohalarida qonunchilik talablariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish.	1. Qishloq xo'jaligi sohalaridagi qonun va qonunosti hujjatlariga rioya qilinishi va ijrosi yuzasidan o'tkazilgan nazorat tadbirlarini tahlil qilish va aniqlangan muammolarni hal etish choralarini ko'rish. 2. O'tkazilgan nazorat tadbirlari ijrosi bo'yicha muhokama o'tkazish va aniqlangan muammolarni hal etish choralarini ko'rish.	(har oyning 5-sanasi) har oy yakuni va 16 sanasida	1. Tadbirkorlik subyektlari o'rtasida nazorat va profilaktika tadbirlarini o'tkazish orqali qishloq xo'jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini oshirishga erishiladi. 2. Qishloq xo'jaligi sohalaridagi qonun va qonunosti hujjatlariga rioya qilinishi va ijrosi yuzasidan nazorat ta'minlanadi.	V.Hasanov, M.Mirzayev (i) , tarkibiy tarmoq va hududiy boshqarmalar boshliqlari
15.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 30.12.2024-yildagi Qishloq xo'jaligi maydonlaridagi qo'shimcha imkoniyatlardan foydalangan holda mahsulot yetishtirishni ko'paytirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida PQ-465-son qaroriga asosan ekin ekish rejasini bajarmagan yerdan foydalanuvchilarga nisbatan choralar ko'rish ishlarini yakunlash.	O'simliklar karantini va himoyasi agentligining ma'lumotida qayd etilgan yerdan foydalanuvchilarga nisbatan ko'rilgan choralar to'g'risida yakuniy hisobot tayyorlanadi	oktabr	Kelgusida dala chetlaridan samarali foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni yo'lga qo'yiladi.	V.Hasanov, A.Maxmudov(i) , hududiy boshqarma boshliqlari

T/r	Chora-tadbirlarning nomi	Amalga oshirish mexanizimi	Ijro muddati	Erishiladigan natija	Ijro uchun mas'ullar
16.	Hududiy boshqarmalarning Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanishni nazorat qilish bo'lim (sho'ba)lari inspektorlari tomonidan o'zboshimchalik bilan yerlarning qishloq xo'jaligi muomalasidan chiqishiga sabab bo'lgan hollarda yetkazilgan zararni hisoblash va undirish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni *Buxoro va **Navoiy viloyatlari kesmida o'rganib chiqish va aniqlangan holatlarni birgalikda bartaraf etish choralarini ko'rish.	Bajarilgan ishlarni va hisoblangan mablag'larni to'g'ri bajarilishi va to'g'ri hisoblanishi doimiy kuzatib boriladi. Hisoblangan mablag'larni tezkor undirish srolarini ko'rish bo'yicha o'z vaqtida amaliy yordam beriladi.	*avgust **sentabr	Qishloq xo'jaligi yerlariga zarar yetkazish holatlarini oldi olinadi. Aniqlangan holatlar yuzasidan huquqni muhofaza qilish organlarga ma'lumotlar kiritiladi. Qishloq xo'jaligi yerlariga yetkazilgan zararlarni o'z vaqtida undirish uchun sudlarga davo arizalari kiritilishiga erishiladi.	V.Hasanov, A.Maxmudov(i), Buxoro va Navoiy viloyat boshqarma boshliqlari
17.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 18-noyabrda "Toshkent shahrida sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanishni tashkil etish, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishda boshqaruv tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-17-son qarori ijrosi yuzasidan Toshkent shahridagi qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish holatini o'rganish.	Toshkent shahar Qishloq xo'jaligi boshqarmasi tomonidan o'tkazilgan monitoring ma'lumotlariga asosan Toshkent shahridagi qishloq xo'jaligi yerlarini bo'sh qolishi yoki foydalanilmasdan qoldirib yuborilishi hamda o'zboshimchalik bilan egallab olish holatlari o'rganib boriladi.	doimiy	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni borishi, yerdan foydalanishni samarali tashkil etilishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritiladi. O'zboshimchalik bilan egallangan yer maydonlari to'g'risidagi ma'lumotlarni huquqni muhofaza qilish organlariga kiritib boriladi.	V.Hasanov, A.Maxmudov(i), bo'lim xodimlari
18.	2025-yil hosilidan urug'lik paxta yetishtiruvchi subyektlarining urug'lik paxta maydonlarida dala aprobatsiya ko'rigini Vazirlar Mahkamasining 2021-yil	1. Urug'lik maydonlarga ekish uchun foydalanilgan urug'liklarning birlamchi va urug'lik yetishtirish huquqini beruvchi hujjatlarini o'rganish.	22-sentabr	Urug'lik maydonlarida sifatli aprobatsiya ko'rigi o'tkazilishiga erishiladi va kelgusi yil hosili uchun navdorligi yuqori bo'lgan	M.Qurbanbayev, X.Maxmudov (i), Inspeksiyaning

T/r	Chora-tadbirlarning nomi	Amalga oshirish mexanizimi	Ijro muddati	Erishiladigan natija	Ijro uchun mas'ullar
	12-oktabrdagi 641-sonli qarorining 3-ilovasi bilan tasdiqlangan “Urug‘lik uchun ekilgan maydonlarda qishloq xo‘jaligi ekinlarini aprobatsiya qilish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga qat’iy amal qilgan holda sifatli o‘tkazilishini nazorat qilish. Aprobatsiya ko‘rigi yakuni bilan Inspeksiyaning Buxoro viloyati boshqarmasining hisobotini eshitish.	2. Aprobatsiya dalolatnomalari va blankalarini to‘g‘ri rasmiylashtirilganligini tekshirish. 3. Aprobatsiya bog‘lamlari (snop) olinganligi va to‘g‘ri tahlil qilinganligini o‘rganish. 4. O‘rganish natijalariga ko‘ra aniqlangan qonun buzilish holatlariga yo‘l qo‘yganlarga nisbatan choralar ko‘rish.		urug‘lik chigit jamg‘arilishiga zamin yaratilib, qonun buzilish holatlariga yo‘l qo‘yganlarga nisbatan choralar ko‘rilishi ta‘minlanadi. Amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha Inspeksiya boshlig‘iga axborot kiritiladi.	Buxoro viloyati boshqarma boshlig‘i
19.	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 18-martdagi 166-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan Nizom talablariga rioya qilgan holda hududlarda urug‘lik don yetishtiruvchi xo‘jaliklarni aniqlash bo‘yicha tanlovlarining to‘g‘ri va haqqoniy o‘tkazilishini nazorat qilish.	1. Kelgusi yil hosildan urug‘lik don yetishtirish huquqini qo‘lga kiritish uchun xo‘jaliklar o‘rtasida o‘tkaziladigan tanlovlarda Nizomda belgilangan tadbirlarning o‘z muddatlarida to‘g‘ri bajarilishi o‘rganiladi. 2. O‘rganish natijasi aniqlangan qonunbuzilish holatlar yuzasidan choralar ko‘riladi.	20-avgust	Amaldagi normativ- huquqiy hujjatlar ijrosi taminlanadi. Kelgusida sifatli urug‘lik don yetishtirilishiga erishiladi va amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida rahbariyatga axborot kiritiladi..	M.Qurbanbayev, Sh.Jumanov (i), M.Qoraboyev, Inspeksiyaning hududiy boshqarma boshliqlari
20.	Tanlovdan o‘tgan xo‘jalik subyektlarining sabzavot, poliz va kartoshka ekinlari urug‘lik maydonlarida dala aprobatsiya ko‘riklarini, Vazirlar Mahkamasining 641-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizom talablari asosida o‘tkazilganligini Farg‘ona viloyati Urug‘chilikni rivojlantirish boshqarmasida o‘rganish.	1. Urug‘lik maqsadlarida ekilgan maydonlarda Vazirlar Mahkamasining 641-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizom talablari asosida dala aprobatsiya ko‘riklari o‘tkazilganligi o‘rganiladi. 2. O‘rganish natijalariga ko‘ra aniqlangan qonunbuzilish holatlariga yo‘l qo‘yganlarga nisbatan choralar ko‘riladi.	27-avgust	Mahalliy urug‘liklar yetishtirilishiga erishiladi va import urug‘liklar miqdori kamayadi. Natijasi bo‘yicha rahbariyatga axborot kiritililadi va aniqlangan kamchiliklar yuzasidan viloyat hokimligiga taqdimnoma kiritilishi ta‘minlanadi.	M.Qurbanbayev, Z.Ismatov (i), D.Abdiqobilov, Inspeksiyaning Farg‘ona viloyati boshqarmasi boshlig‘i

T/r	Chora-tadbirlarning nomi	Amalga oshirish mexanizimi	Ijro muddati	Erishiladigan natija	Ijro uchun mas'ullar
				Natijasi bo'yicha Inspeksiya boshlig'iga axborot kiritiladi.	
21.	Yog'-moy korxonalarida paxta texnik chigitini to'liq texnologik siklda maqsadli qayta ishlaganligi hamda ularning mahsulot sifatini tasdiqlovchi gigiyenik xulosaga ega ekanligi ustidan nazoratni olib borish.	1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 17-yanvardagi PQ-3479-son qaroriga asosan nazorat tadbirlari o'tkazish. 2. Nazorat tadbirlariga "O'zyog'moysanoat" uyushmasi, O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi hamda Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati mutaxassislarini jalb etish.	Har oyning 5-sanasi	Yuqori likvidlikli yoki monopol tovarlarni, ijtimoiy ahamiyatga ega asosiy mahsulotlar narx-navolari keskin o'sishiga, bozorda talab va taklif muvozanatini ta'minlashga erishiladi. Natijasiga ko'ra rahbariyatga axborot hamda Tovar xom-ashyo birjasiga taqdimnoma kiritiladi.	V.Hasanov, R.Murodov (i) , Inspeksiyaning Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyat boshqarmalari
22.	"Qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatini baholash markazi" davlat muassasasi tizimidagi sertifikatlash organlari va laboratoriyalarida sertifikatlashtirish qoidalariga rioya etilishini hamda sifati bo'yicha muvofiqligi baholanadigan paxta tolasi, texnik va urug'lik chigit, paxta momig'i, texnik va urug'lik don miqdori bo'yicha ma'lumotlarni tahlil qilish.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagi 575-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zagroinspeksiya" to'g'risidagi Nizomning 12-bandi, "b" kichik bandi oltinchi xatboshiga asosan "Qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatini baholash markazi" davlat muassasasidan ma'lumotlarni olib tahlil qilish.	Har oyning 5-sanasi	Olingan ma'lumotlar asosida "Qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatini baholash markazi" davlat muassasasi faoliyati baholanadi hamda sohada xavf tahlil qilinadi. Natijasiga ko'ra rahbariyatga axborot kiritiladi.	V.Hasanov, R.Murodov (i) , Inspeksiyaning Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyat boshqarmalari
23.	Viloyat ichida va viloyatlararo tashishlarda donlarning sifatini to'liq nazorat qilib borish hamda donning aylanmasini sun'iy ravishda oshirilishiga olib keladigan rejasiz tashishlar hajmini qisqartirilishi	1. Don korxonalarida har oyning yakuni bo'yicha keyingi oyning 5-sanasi qadar donning aylanma harakati bo'yicha ma'lumotlar olinadi. 2. Viloyat ichida va viloyatlararo tashishlarda donning sifati, donning	iyul-dekabr	Donning aylanma harakati doimiy nazorat qilib boriladi, viloyat ichida va viloyatlararo tashishlarda donning sifatini sun'iy ravishda o'zgartirib	V.Hasanov, K.Axmedov (i) , Sh. Nurmatov, bo'lim mutaxassislari, Qoraqalpog'iston Respublikasi va

T/r	Chora-tadbirlarning nomi	Amalga oshirish mexanizimi	Ijro muddati	Erishiladigan natija	Ijro uchun mas'ullar
	ustidan doimiy nazoratni kuchaytirish, tabiiy kamayish miqdorlarini qisqartirilishini nazorat qilish. 2025-yil II yarim yillikda jami 16 ming 400 tonna tabiiy yo'qotish miqdorini iqtisod qilish. Jumladan: 3-chorakda – 7 200 tonna; 4-chorakda – 9 200 tonna.	aylanma harakatini sun'iy ravishda oshirilishiga olib keladigan rejasiz tashishlar hajmi nazorat qilinadi. 3. Tabiiy kamayish miqdorlarining qisqartirilishi ta'minlanadi. 4. Natijasi bo'yicha tahliliy ma'lumot Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritib boriladi.		yozish hamda rejasiz tashishlarning oldi olinadi. Shuningdek donda ortiqcha nobudgarchiliklarning oldi olinib, tabiiy kamayish miqdorining qisqartirilishiga erishiladi.	viloyatlar boshqarmalari
24.	Inspeksiyaning Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar boshqarmalari Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 31-maydagi 345-son qarorida ko'rsatilgan 4-band "j" kichik bandiga asosan tegishli tashkilotlar bilan birgalikda har chorakda va har kalendar yilning 1-may holatiga o'tgan yillarda davlat zaxirasi, davlat resursi, vaqtinchalik saqlash va urug'lik uchun qabul qilingan bug'doy qoldig'ini to'liq geometrik o'lchovdan o'tkazilishini nazorat qilish.	1. Davlat zaxirasi, davlat resursi, vaqtinchalik saqlash va urug'lik uchun qabul qilingan bug'doy qoldig'ini Vazirlar Mahkamasining 345-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizom talablari asosida geometrik o'lchovdan o'tkazilishini o'rganiladi. 2. O'rganish natijalariga ko'ra aniqlangan qonunbuzilish holatlariga yo'l qo'yganlarga nisbatan choralar ko'riladi.	avgust-noyabr	Davlat zaxirasi, davlat resursi, vaqtinchalik saqlash va urug'lik uchun qabul qilingan bug'doy qoldig'ini sifatli saqlanishi va ortiqcha yo'qotishlarning oldini olish hamda kamomadga yo'l qo'ymaslik, qonun buzilish holatlariga yo'l qo'yganlarga nisbatan choralar ko'rilishi ta'minlanadi. Amalga oshirilgan ishlar bo'yicha Inspeksiya boshlig'iga axborot kiritiladi.	V.Hasanov, K.Axmedov (i), Sh. Nurmatov, bo'lim mutaxassislari, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar boshqarmalari
25.	Paxta to'qimachilik ishlab chiqaruvchilari va klasterlari tizimidagi paxta tozalash korxonalari tomonidan 2025-yil hosilidan yetishtirilgan paxta xom-ashyosini qabul qilishda elektron tarozi va paxta tolasini avtomatlashgan hisobga olish	1. Qishloq xo'jaligi vazirligining "Agroplatforma" tizimi elektron bazasiga ulangan korxonalarini tahlil qilish. 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.12.2023 yildagi PF 205-son Farmoni 8-9-bandlaridan	avgust-noyabr	2025-yil hosilidan yetishtirilgan paxta xom-ashyosini qabul qilishda elektron tarozi va paxta tolasini avtomatlashgan hisobga olish tizimlari orqali qabul qilinishi yo'lga qo'yiladi.	V.Hasanov, K.Axmedov (i), R. Saburov, hududiy boshqarmalarning paxta yo'nalishi mutaxassislari

T/r	Chora-tadbirlarning nomi	Amalga oshirish mexanizimi	Ijro muddati	Erishiladigan natija	Ijro uchun mas'ullar
	tizimlari joriy etilish holatini o'rganish.	kelib chiqib Paxta to'qimachilik klasterlariga yozma ko'rsatmalar kiritish. 3. Amalga oshirilgan ishlar yakuni bo'yicha rahbariyatga keyingi oyning 5-sanasiga qadar axborot kiritiladi va tegishli chora-tadbirlar belgilanadi.			
26.	Paxta xom-ashyosi hamda don qabul qilish mavsumi davomida mahsulot yetishtiruvchi va qayta ishlash korxonalari o'rtasida xom-ashyo qabul qilish jarayonida sifat ko'rsatkichlari bo'yicha yuzaga keladigan nizolarni hal qilish.	1. Mavsumda paxta xom-ashyosi hamda don mahsulotlarini yetishtirishda nobudgarchilikni kamaytirish, kelib chiqishi mumkin bo'lgan zararni oldini olish va nizolarni o'zaro joyida hal etish maqsadida mobil arbitraj va ishchi guruhlarini tashkil etish. 2. Tashkil etilgan mobil arbitraj va ishchi guruhlari tomonidan donning sifat ko'rsatkichlarini aniqlashda yuzaga keladigan nizolar bo'yicha qayta sinovdan o'tkazish tartibiga amal qilinishini muvofiqlashtirish. 3. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritish.	iyul-dekabr	Mavsumda paxta va don mahsulotlarini yetishtirishda nobudgarchilikni kamaytirishga erishiladi, kelib chiqishi mumkin bo'lgan zararining oldini oladi.	V.Hasanov, K.Axmedov (i) , R. Saburov, Sh. Nurmatov, hududiy boshqarmalarning paxta va don yo'nalishi mutaxassislari
27.	Paxta to'qimachilik ishlab chiqaruvchilari va klasterlari hamda kooperatsiyalar tizimidagi paxta tozalash korxonalarining tayyorlov maskanlarini 2025-yil hosilidan yetishtirilgan paxta xom-ashyosini qabul qilishga tayyorligini o'rganish.	1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagi 575-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zagroinspeksiya" to'g'risidagi Nizomning 12-bandi, "g" kichik bandi to'rtinchi xatboshiga asosan mavjud paxta qabul qilish maskanlari o'rganiladi.	avgust - sentabr	Paxta to'qimachilik klasterlari hamda kooperatsiyalar tizimidagi paxta qabul qilish maskanlari 2025-yil hosilidan yetishtirilgan paxta xom-ashyosini qabul qilishga shay holatga keltirilishi ta'minlanadi.	V.Hasanov, K.Axmedov (i) , R. Saburov, hududiy boshqarmalarning paxta yo'nalishi mutaxassislari

T/r	Chora-tadbirlarning nomi	Amalga oshirish mexanizimi	Ijro muddati	Erishiladigan natija	Ijro uchun mas'ullar
		2. Natijasiga ko'ra rahbariyatga va Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritiladi.			
28.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Qishloq xo'jaligi ekinlari urug'chiligini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 106-sonli qarorining 4-ilovasi bilan tasdiqlangan chora-tadbirlar dasturining 6-bandi ijrosi yuzasidan paxta-to'qimachilik klasterlari tomonidan g'o'zani yetishtirish bo'yicha agrotexnik tadbirlarini o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlash.	Hududlarda 2025 yil hosili uchun parvarish qilinayotgan g'o'za maydonlarida agrotexnik tadbirlarini o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi nazoratga olib boriladi va hududlardan olingan tahliliy ma'lumotlar asosida qaror ijrosi o'rganiladi.	noyabr-dekabr	Hududlarda 2024-yil hosili uchun parvarish qilinayotgan g'o'za g'alla maydonlarida agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli o'tkazilishiga erishiladi, buborada kamchiliklarga yo'l qo'ygan fermer xo'jaliklari va soha masullariga ta'sir choralar qo'llanilib, kachiliklarni bartaraf qilinishiga va g'o'za maydonlaridan yuqori hosil olinish imkoniyati yanada oshadi. Amalga oshiririlgan ishlar yuzasidan tahliliy ma'lumot tayyorlanib, Vazirlar Mahkamasiga va Qishloq xo'jaligi vazirligiga axborot kiritiladi.	V.Hasanov, M.Husaninov (i) , I.Raxmatullaev Inspeksiyaning hududiy boshqarmalari
29.	2025-yil hosili uchun ekilgan paxta yig'im-terim mavsumida qatnashadigan paxta terish mashinalari ishlashi ustidan nazorat o'rnatish.	2025-yil hosili uchun ekilgan paxta yig'im-terim mavsumida qatnashadigan paxta terish mashinalari ishlashi Inspeksiya va Ichki ishlar vazirligi xodimlari birgalikda doimiy monitoring qilib boriladi.	sentabr-oktabr	2025-yil hosili uchun ekilgan paxta yig'im-terim mavsumida qatnashadigan paxta terish mashinalari ishlashi Inspeksiya va Ichki ishlar vazirligi xodimlari birgalikda doimiy monitoring qilib boriladi, har haftada rahbariyatga tegishli jadval asosida ma'lumot berib boriladi.	V.Hasanov, A.Mirzaaxmedov (i) , Inspeksiyaning hududiy boshqarmalari

T/r	Chora-tadbirlarning nomi	Amalga oshirish mexanizimi	Ijro muddati	Erishiladigan natija	Ijro uchun mas'ullar
VI. INSPEKSIYA TARKIBIY TARMOQLARI TOMONIDAN AMALGA OSHIRILADIGAN AMALIY TADBIRLAR					
30.	2026-yil bahorgi dala ishlarida qatnashadigan qishloq xo'jaligi texnikalarini ta'mirlash uchun maskanlarga yig'ish va ularni ta'mirlash ishlarining borishini o'rganish.	2026-yil bahorgi dala ishlarida qatnashadigan qishloq xo'jaligi texnikalarini belgilangan maskanlarga ta'mirlash uchun yig'ilishi va ularni ta'mirlash ishlarining borishi Inspeksiya va Ichki ishlar xodimlari tomonidan doimiy monitoring qilib boriladi hamda nazoratga olinadi.	dekabr	Amalga oshirilayotgan ishlarning natijasi doimiy nazoratga olinadi hamda olib borilayotgan ishlar yuzasidan rahbariyatga ma'lumot berib boriladi.	V.Hasanov, A.Mirzaaxmedov (i) , Inspeksiyaning hududiy boshqarmalari
31.	O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 14-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-154-on Farmoniga muvofiq, "O'zagroinspeksiya" faoliyatiga yanada ochiqlik berish maqsadida Inspeksiya rahbari va sohaviy boshqarma boshliqlari ishtirokida o'tgan davr mobaynida inspeksiya erishgan natijalar xususida ommaviy axborot vositalarida intervyular uyushtirish hamda rahbariyat ishtirokida Press-tur va matbuot anjumanlari o'tkazish.	1. Ommaviy axborot vositalari vakillari jalb qilingan holda, rahbariyat va sohaviy boshqarma boshliqlari ishtirokida press-tadbirlar tashkil etish, jamoatchilik vakillari oldida faoliyat yuzasidan hisobot beriladi va savol-javoblar o'tkaziladi. 2. Natijasi bo'yicha ommaviy axborot vositalari hamda Inspeksiya rasmiy veb-saytida muntazam yoritib boriladi.	iyul-dekabr (har oyning 28-sanasiga)	"O'zagroinspeksiya" faoliyatiga yanada ochiqlik berilib, tashkilot shaffofligi erishiladi va tizimda amalga oshirilayotgan islohotlar bilan jamoatchilik vakillari yaqindan tanishadilar. Amalga oshirilgan ishlar bo'yicha Inspeksiya boshlig'iga axborot kiritiladi.	S.Ismoilova (i) , Markaziy apparat tarkibiy bo'linmalar rahbarlari, hududiy boshqarmalar boshliqlari, "Qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatini baholash markazi" davlat muassasasi
32.	Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-fevraldagi 74-sonli qarorlari, shuningdek, huquqiy axborotni tarqatishga oid boshqa qonunchilik	Markaziy apparat tarkibiy bo'linmalar rahbarlari, hududiy boshqarmalar boshliqlari sohaga oid qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali	iyul-dekabr (har oyning 28-sanasiga)	Inspeksiya organlarida qonunlarni targ'ib qilish samaradorligini oshirish, qonun hujjatlari, ularga kiritilayotgan	S.Ismoilova (i) , Markaziy apparat tarkibiy bo'linmalar rahbarlari,

T/r	Chora-tadbirlarning nomi	Amalga oshirish mexanizimi	Ijro muddati	Erishiladigan natija	Ijro uchun mas'ullar
	hujjatlari ijrosini samarali tashkil etish uchun Inspeksiya organlarida qonunlarni targ'ib qilish samaradorligini oshirish, qonun hujjatlari, ularga kiritilayotgan o'zgartirishlar va amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish, maqsadida sohaviy rahbarlar bilan ijtimoiy tarmoqlarda ochiq suhbatlar tashkil etish va Inspeksiyaning rasmiy veb-saytida yoritib borish.	tashkil etilayotganligi yuzasidan rasmiy ijtimoiy tarmoqlarda suhbatlar uyushtirilad va hujjatlar mazmun-mohiyati targ'ib qilinadi.		o'zgartirishlar va amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati keng jamoatchilikka yetkaziladi va xabardor qilinadi.	hududiy boshqarmalar boshliqlari, "Qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatini baholash markazi" davlat muassasasi
33.	Inspeksiya tomonidan I yarim yillikda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan brifing tashkil etish. Ushbu tadbir Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida o'tkazilishi taklif qilinadi	Inspeksiya tomonidan I yarim yillikda amalga oshirilgan ishlar to'g'risida brifingda ma'lumot beriladi.	iyul	"O'zagroinspeksiya" faoliyatiga yanada ochiqlik berilib, tashkilot shaffofligi erishiladi va tizimda amalga oshirilayotgan islohotlar bilan jamoatchilik vakillari yaqindan tanishadilar.	S.Ismoilova (i), Markaziy apparat tarkibiy bo'linmalar rahbarlari
34.	Inspeksiyaning quyi tizimlarida axborot va kiberxavfsizlik talablariga rioya etish bo'yicha markaziy apparat tomonidan Inspeksiyaning Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasida masofaviy o'rganish.	1. Axborot va kiberxavfsizlik talablari bo'yicha o'rganish yuzasidan savol-noma tuziladi. 2. O'rganish yakuni bo'yicha ma'lumotnoma rasmiylashtiriladi. 3. Aniqlangan kamchiliklar yuzasidan ko'rsatmalar beriladi.	noyabr	Axborot va kiberxavfsizlik qoidalariga rioya qilinishi nazoratga olinadi.	N.Kadirov (i), Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarma boshlig'i
VII. KADRLARNI TANLASH, MALAKASINI OSHIRISH, QAYTA TAYYORLASH ISHLARINI TASHKIL ETISH					
35.	Inspeksiya boshlig'ining 2025-yil 1-maydagi 5-B-sonli buyrug'i bilan	O'rganish jarayonida inson resurslarini boshqarish tizimi – kadrlar	oktabr	Hududiy boshqarmalarda "HR-management" Nizomi	V.Hasanov,

T/r	Chora-tadbirlarning nomi	Amalga oshirish mexanizimi	Ijro muddati	Erishiladigan natija	Ijro uchun mas'ullar
	tasdiqlangan “HR-management” to'g'risidagi Nizomi talablari ijrosini Inspeksiyaning Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyatlari boshqarmalarida o'rganish va amaliy yordam ko'rsatish.	rejalashtirish, tanlov va lavozimga tayinlash, attestatsiya, malaka oshirish, xizmat o'sishini boshqarish kabi yo'nalishlar Nizom talablari asosida tahlil qilinadi. Aniqlangan kamchiliklar yuzasidan hududiy boshqarmalarga amaliy va uslubiy yordam ko'rsatiladi, shuningdek, namunaviy hujjatlar asosida tavsiyalar beriladi. Yakunda har bir boshqarma bo'yicha xulosa va takliflarni o'z ichiga olgan tahliliy hisobotlar tayyorlanadi.		talablarining to'laqonli va sifatli ijrosi ta'minlanadi. Inson resurslarini boshqarish jarayonlari yagona, tizimli va natijador yondashuv asosida olib borilishi yo'lga qo'yiladi. Kadrlar bilan ishlashda shaffoflik, ochiqlik va samaradorlik kuchayadi. Boshqarmalarning kadrlar bo'limlari malakasi oshadi, zamonaviy boshqaruv tamoyillariga moslashadi. Eng muhimi, inson omiliga bog'liq bo'lgan xatoliklar kamayadi va korrupsiyaviy hamda manfaatlar to'qnashuvi xavflarining oldi olinadi. Amalga oshirilgan ishlar bo'yicha Inspeksiya boshlig'iga axborot kiritiladi.	U.O'tbosarov (i), bo'lim xodimlari
36.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi “Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 595-sonli qarori va Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-oktabrdagi 611-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Nazorat qiluvchi	Tekshiruv huquqini beruvchi attestatsiyadan o'tkazish jarayoni — uning shaffofligi, me'yorlarga muvofiqligi, belgilangan nizom talablariga amal qilinishi ham o'rganiladi. Monitoring davomida hujjatlar, buyruqlar, attestatsiyaga oid qarorlar, test natijalari, odob-axloq kodekslari va ularning amalda	dekabr	Hududiy boshqarmalarda davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq qoidalariga rioya etishi ustidan ichki nazorat kuchayadi, xizmat intizomi, xulq-atvor madaniyati va kasbiy mas'uliyatni oshirish bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yiladi.	V.Hasanov, U.O'tbosarov (i), bo'lim xodimlari

T/r	Chora-tadbirlarning nomi	Amalga oshirish mexanizimi	Ijro muddati	Erishiladigan natija	Ijro uchun mas'ullar
	organlar mansabdor shaxslarini tadbirkorlik subyektini faoliyatini tekshirish huquqini berish yuzasidan attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizom talablarini Inspeksiyaning hududiy boshqarmalarida o'rganish	qo'llanilishi huquqiy va tashkiliy jihatdan tahlil qilinadi.		Nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi me'yorlarga to'liq moslashtiriladi, huquqbuzar-lik va noqonuniy tekshiruvlar xavfi kamayadi. Attestatsiya-larning shaffof va adolatli o'tkazilishi orqali tizimda salohiyatli, mas'uliyatli va halol kadrlar shakllantiriladi. Amalga oshirilgan ishlar bo'yicha Inspeksiya boshlig'iga axborot kiritiladi	